

Tosh masjid va minora (Qiziltepa tumani)

Tarixchi **Bahriddin Kashmir** o'zining "Rizvat ar-Rivzon va Hadiqat al-Gilmon" asarida "vang'oz qishliqida vaqt o'tishi bilan buzilib ketgan sinchli masjidi bor" deb eslab o'tgan. Xo'ja Sayid Jiboriy eski masjidni buzib o'rniga g'ishtdan yangi masjid va uning yonida baland minora qurdirdi. Yangi masjid qurilishi **olti yil** davom etib, **1580-yilda** tugallandi. **XVI asrda** pishiq g'ishtdan qurilgan baland minorali Toshmasjid va Qo'rg'on masjidleri bizgacha etib kelgan. Ayrim tadqiqotlarda Toshmasjidni **XVI asrga** oid va Abdullaxon II tomonidan qurdirilgan deyilsa, boshqalarida undagi minorani **XVIII asrda** barpo etilganligi ta'kidlanadi. Majmua tekis joyda joylashgan, uning sharq tomonidan ariq oqib o'tgan, shimol tomonida yo'l bor, majmuaning janub tomonida esa qabriston joylashgan. Mazkur majmua tarixi (plani) **1949-yilda** arxitektor **A.Balaev** o'lchovlari asosida chizilgan Toshmasjid yonidagi **24m** balandlikdagi ko'rkam minora e'tiborni tortadi. Pastki qismi asos aylanasi **3,8m** poydevori toshdan terilgan. **1982-yilda** davlat muxofazasiga olinib o'sha paytdagi "Moskva" kalxosi va Qiziltepa tumani rahbarlari, O'zbekiston SSR Madaniyat ishlari vaziri e'tibori bilan Toshmasjid qisman ta'mirlanib, unda muzey tashkil etildi. Istiqlol tufayli Toshmaschid ham qayta yoshardi. **2002-yilda** bo'lib o'tgan xalq deputatlari Navoiy viloyat Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov Toshmasjidni ham alohida tilga olgach, viloyat hokimi B.Ro'zievning farmoyishiga binoan uni asosli ta'mirlash ishlari boshlandi. Besh oy deganda majmua go'zal qiyofani kashf etdi. Noyob me'moriy yodgorliklarga ega bo'lgan O'zbekistonning **XVI asrga** mansub yana bir qadimgi ziyoratgohi qayta tiklandi.

**Tosh masjid va Minora
(Qiziltepa tumani)**



Boyazid Bistomiy (Qiziltepa tumani)

Boyazid Bistomiy **(801-875)** Eronning Bistom shaxrida tugʻilgan. Tayfuriya sufiylik taraqqiyotining piri. Uning bobosi islomni qabul qilgan zardushtlardan boʻlgan, butun umrini asosan Bistomda oʻtkazgan. Vafotidan keyin uni **Sulton al-Orifin (oriflar sultoni)** laqabi bilan atay boshladilar. Boyazid Bistomiy tasavvufning ayrim tushunchalarini ishlab chiqqan boʻlsa ham, oʻzining bir butun ilohiy tazimdagi taʼlimotini yaratmadi. U ilohiy (lohut) va insoniy (nosut) ruhni bir-biriga biriktirishga harakat qildi, yaʼni maʼnaviy va moddiy ibtidoni bir-biriga qoʻshishga intiddi. Boyazid Bistomiy oʻzidan asar qoldirmagan. Uning ibratli gaplari, nasihatlarini mulozimlari yozib olishgan. Ayrim tasavvuf kishilari Bistomiy obroʻyidan foydalanib oʻzlarining shariatga unchalik toʻgʻri kelmaydigan fiqolarini Bistomiyning fikri deb koʻrsatishga uringanlar. Boyazid Bistomiy hazratlari **113** pirdan saboq olganlar. Qiziltepaning qadim Boʻstonida hazrat Boyazid Bistomiy ziyoratgohi borligi ham ulugʻ avliyoyimizga hurmat-ehtirom, eʼtiqod ramzi albatta. Bu tabarruk joyda **1929 yilgacha** mahobatli masjid va minorasi boʻlib, sovet davrida u buzib tashlangan. Buzib tashlangan masjid oʻrnida **1990 yili** choʻpkori, shimoli va sharqi ayvonli masjid bunyod etildi. Ramziy qabr ustida mahobatli gumbaz qurildi. Bu yerda shifobaxsh suvli quduq qayta taʼmirlandi. Hozir Boyazid Bistomiy masjidi tumanning bosh masjidi.

**Boyazid Bistomiy
(Qiziltepa tumani)**



Sangijumon (Xatirchi tumani)

Navoiy viloyati Xatirchi tumanida Sangijuman qishlog'i bor. Tabiati betakror, go'zal bu maskan sayyoh va ziyoratchilarni o'ziga turli shakldagi xarsangtoshlari bilan jalb etadi. Qishloq tugashi bilan bepoyon qirliklarda sochilib yotgan xarsanglarga ko'zingiz tushadi. Qirlik Nurota tizma tog'larining janubiy shaxobchasi bo'lib, uzunligi **70 km, eni esa 9, 28 km.dir.** Mahalliy aholi uni **Oq tog'** deb atashadi. Oq tog'ning **janubiy** qismida **Sangijumon** deb ataladigan kamyob **intruziv** - tosh massivi mavjud.

Sangijumon massivining paydo bo'lish tarixi olimlar tomonidan turlicha qarashlarni ilgari surishlariga olib keldi. Ba'zilar massiv bundan **280 million yil** avval, er yuziga qaynoq va suyuq tog' jinrlarining Yer yuziga ko'tarilishi natijasida vujudga kelgan deyishsa, boshqalari uning yoshini **250 mln. yilga** tenglashtirishadi. Shu bilan birgalikda bu erda **paleozoy** davrida shovullab turgan **Tetis** dengizi o'rtasidan yuqoriga ko'tirilgan tog' jinrlari yarim oy shaklda orolni vujudga keltirganini ham qayd etishadi.

Sangijumonning g'aroyib toshlari ichida eng mashhuri **og'irligi 250 tonna, aylanasi 20 metr, diametri 9 metr, balandligi esa 6 metr**ga yaqin keladigan xarsangdir. Qizig'i uni yosh bola ham arzimagan kuch sarflab tebrata oladi. Sangijumon so'zining o'zi **fors tilidan** olingan bo'lib "**tebranadigan tosh**" ma'nosini anglatadi. Tabiatning bunday noyob toshlari dunyo bo'ylab sanoqlidir. Ulardan biri **Argentinada Buenos-Ayres** shahrining chekkasida, ikkinchisi Isroilning **Quddus shahrida** va uchinchisi **O'zbekistonda Sangijumonda** joylashgan. "Teshiktosh" deb ataladigan bu ulkan xarsang esa bir necha yuz yildan buyon mahalliy aholi uchun "**gunohlarini o'lchovchi tosh**" hisoblanadi. Uning pastida katta teshik bo'lib, aytishlaricha **undan eson-omon o'tgan odam "gunohsiz"** hisoblanar ekan. Ayni paytda Sangijumonda **100 dan ortiq kamyob, o'ziga xos tabiiy yodgorliklar mavjud.**

**Sangijumon
(Xatirchi tumani)**



Sarmishsoy (Navbahor tumani)

Navoiy viloyatining ajablantiradigan joylaridan biri – **Sarmishsoy** darasi **10 ming yildan** ortiq yoshdagi sirli petrogliflari bilan uzoq vaqt sayyohlarni o‘ziga jalb qilib keladi. Barcha qoyatosh rasmlari tosh yoki metall asboblardan yorib yozilgan yoki o‘yilgan. Eng qadimgi rasmlar **ornamentli-ajur, kontur** yoki **aralash usulda** o‘yilgan. Dara va uning atroflarida qoyatoshlar yuzasida o‘yilgan **5 mingdan ortiq** rasmlar topilgan. Ular **qora** yoki **jigarrang patina** bilan qoplangan. Petrogliflarning mavzusi xilma-xil. Bugungi kunda kamida **35 ta tematik rasm** va **mavzular** mavjud. **Yuqori paleolit** madaniyatiga xos bo‘lgan **bio-uchburchaklar** uslubida yaratilgan **turbuqalarning rasmi** alohida qiziqish uyg‘otadi. Rasmlar bilan bir qatorda Sarmishsoy qoyalari orasida **arab tilidagi turli xil yozuvlar** ham uchraydi.

Qoratog‘ (Navoiy viloyati)ning janubiy yon bag‘ridagi Sarmishsoy darasi qoyatoshlariga o‘yib ishlangan rasmlar. **1958-y. da X. Muhamedov** tomonidan topilgan. **1966-yildan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda (dastlab N. Toshkanboyev, keyinroq, A. Kabirov, 1960—70y. lar; 1993-y. dan M. Xo‘janazarov va boshqarlar.** Sarmishsoy ibtidoiy san’atning nodir yodgorligi hamda shu hududda yashagan qadimiy xalqlarning hayoti, hayvonot dunyosi tarixini o‘rganishda muhim arxeologik yodgorlik obidasi sifatida qimmatlidir.

**Sarmishsoy
(Navbahor tumani)**



Mir Said Bahrom maqbarasi

(Karmana tumani)

Mir Said Bahrom maqbarasi Karmana shahrining markazida joylashgan. Mazkur tarixiy kompleks maqbara va uncha katta bo‘lmagan masjidni o‘z ichiga oladi. Maqbara **XI asrda qurilgan**. Maqbara **1976-yilda oxirgi marta qayta qurilgan**. Tarixchilarning ta’kidlashicha Mir Said Bahrom Somoniylar sulolasining vakili hisoblanadi. **Abu Tohirxo‘ja Samarqandiyning «Samariya»** asarida Mir Said Bahrom haqida “u o‘zining aqli, bilimi va mo‘jiza yarata olish qobiliyati bilan xalq orasida hurmatga sazovor inson” degan. Ushbu maqbara O‘zbekiston hududidagi **eng kichik maqbara** hisoblanadi. Ko‘pchilik bu maqbaraning ayrim qismlarini Buxoro shahrida joylashgan **Somoniylar maqbarasiga** o‘xshatishadi. Maqbara binosi **kvadrat shaklidir** va u uncha katta bo‘lmagan gumbazdan tashkil topgan. Kirish qismida juda chiroyli arka mavjud bo‘lib unda **ko‘fiy xat turidagi** yozuv yozilgan. Butun devor geometrik qoplamadan iborat. Binoning ichki qismida marmar toshli qabr toshi mavjud. Qabr ustiga esa qimmatbaho gazlama to‘shalgan. Binoning ichki devorlari gumbazni ko‘tarib turuvchi **sakkiz qirrali arkalardan** iborat. Maqbara **Somoniylar davri** me‘morligiga xos uslubda pishiq g‘isht (**21smx21smx3 sm**) dan bezakli qilib qurilgan. Peshtoqi **3 qismdan** iborat, hoshiyali. **Sharafasi** va **ikki yon tomoni** mayda g‘ishtlardan terilgan. Maqbara mamlakat hisobidagi yodgorliklar qatoriga kiradi. Maqbara o‘rtasida Mir Said Bahromning qabri bor.

**Mir Said Bahrom maqbarasi
(Karmana tumani)**



Qosim-Shayx majmuasi (Karmana tumani)

Qosim Shayx me'moriy majmuasi XVI asrning nodir obidasi bo'lib, Shayboniyxonlar sulolasidan bo'lgan Buxoro hukmdori **Abdullaxon II** tomonidan o'zining **piri, Yassaviya tariqatining piri komili Qosim Shayxga** atab qurdirilgan. Qosim Shayx asli qadim **Karmana tuprog'ida**, Zarafshon daryosi qirg'og'iga yaqin **Marjonxotun qishlog'ida 1500-(bazi manbalarda 1503-y) yilda** tavallud topgan.

Qosim Shayx dastlab Karmanada, keyin esa Buxoroga borib, **Kubroviya (xojagon)** tariqatlaridan biri **Shayx Abdullatifdan** ta'lim oladi. Shuningdek, Qosim Shayx ilm izlab, Samarqandda xazrati Shayx Mavloni Vali huzuriga boradi va u erda Kubroviya (xojagon), Qodiriya, Yassaviya, Naqshbandiya Shayxlari vakillaridan ta'lim va pirlilik ijozatini oladi. Qosim Shayx **XVI asrda** Mavorounnahrda etakchi ruhiy rahnomo, diniy arbob va **Xo'ja Ahmad Yassaviy** tariqatining nomdor davomchisi edi.

O'z zamonasining shayxlari **Qosim Shayxga "Oriflar sultoni, buzruglar burhoni, zamon qutbi, avliyolar madadkori, davr yagonasi, xosu ovom murojaatgohi, valiylik manbai va asosi, valiyilar tayanchi, faqirlar umidi, g'ayri tarifga bexojat zot"** deb ta'rif beradilar. Muhtasar qilib aytganda, aynan o'sha davrda zamonasining etakchi rahnamosi sifatida. Abdullaxon II ning Qosim Shayxga bo'lgan e'tiqodi, hurmati tufayli **(xijriy 966) milodiy 1558-yilda** Karmanada ko'rkam xonaqoh barpo qilina boshlandi va taxminan **15–20 yil** ichida qurib bitkaziladi. Xonaqohning tashqi ko'rinishi **kungurador** qilib bezatilgan qurilmadan iborat. Binoning umumiy ko'rinishida baland gumbaz ajralib turadi. U bino tomidan taxminan **9 metr** ko'tarilgan bo'lib gumbaz devorlari orasida bo'shliq joy qoldirilgan. Xonaqohning ichida **7 ta** xona bo'lib, o'rtada katta zal, kun botish tarafda mehrob o'rnatilgan. Uning to'rt burchagida zilzilalar payti bardoshlikni oshirish maqsadida suyab turuvchi **4 ta** xona qurilgan.

Zamondoshlari tomonidan Qosim Shayxga «**Hazrati Eshon**», «**Qutb ul-avliyo**», «**Shayxi Azizon**» kabi unvonlar berilgan.

**Qosim-Shayx majmuasi
(Karmana tumani)**



Mavlono Orif Deggaroniy (Karmana tumani)

Mavlono Orif Deggaroniy, tarixiy manbalarning guvohligiga qaraganda, taxminan **1313-yilda** Hazora qishlog‘i **Deggaron dahasida** (hozirgi Karmana tumanining Hazora qishlog‘i hududida) tug‘ilgan. Asl kasbi **do‘kondor bo‘lib, bo‘z to‘qish** bilan shug‘illangan. Mavlono Orif **Deggaron dahasida** tug‘ilganliklari bois **Deggaroniy** nomi qushib aytilgan.

Mavlono Orif odamiylik qadriyatlarini har narsadan ustun quygan. Baxt-saodatga erishish faqat mehnat tufayli amalga oshishini alohida uqtirgan. **“Qo‘ling mehnatda bo‘lganda, dilda ne bo‘lmoq kerak” degan savolga hamisha “Diling Ollohni zikrlashda bo‘lsin” degan naqlni muntazam eslatib turgan.** Mavlono Orif Deggaroniy va Bahouddin Naqshbandiyalar dunyoqarashi botinan (ichdan) xudo bilan, zoxiram (tashqaridan) odamlar bilan bo‘lish kerakligiga asoslangan. Ular Olloh rahmatiga etgan kishilardir. Ularda valiylik sifatleri mujassam. Deggaroniy hazrati Bahouddin Naqshband bilan hamnafas, tengdosh va do‘st bo‘lib, u kishi taxminan **1313-1380-yillar** oraligida Deggaron dahasida yashab o‘tgan

Nemis olimi **Yurgen Paul** o‘zining “XIV-XV asrlarda O‘rta Osiyoda naqshbandiyaning siyosiy, ijtimoiy ahamiyati” (Berlin, 1991) kitobida Mavlono Orif Deggaroniyga ham alohida e‘tibor bergan. 2006-2007-yillarda Mavlono Orif Deggaroniy yodgorliklar majmuasi tubdan ta‘mirlandi. Majmua tarkibiga Mavlono Orif hazratlarining muborak qabri, qabr yonidagi chuqurligi **22-23 metr** bo‘lgan quduq, chillaxona, muzey binosi, qadimiy Deggaron masjidi va masjid imomatining zamonaviy binosi kiradi. Yodgorlik majmuasining atroflari qabristondan ajratilib, taxminan 1000 metr uzunlikda 3 metr balandlikdagi g‘ishtin devor bilan o‘raldi.. Chillaxona yangidan qurildi. 2016-yilda esa Deggaron masjidining sharq va janubiy tomonlarini o‘rab turuvchi asl holidagi peshayvon qaytadan tiklandi. Peshayvon ustunlari qadimiy holida, juda ustalik bilan naqshinkor qilib ishlangan. Peshayvon qurildi.